



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**VAZIRLAR MAHKAMASI HUZURIDAGI
O‘ZBEK TILINI RIVOJLANTIRISH JAMG‘ARMASI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI HUZURIDAGI DAVLAT
TILIDA ISH YURITISH ASOSLARINI O‘QITISH VA MALAKA OSHIRISH
MARKAZI**

“DAVLAT TILI TARAQQIYOTI: MUAMMO VA YECHIMLAR”

mavzusidagi V respublika an’anaviy ilmiy-amaliy anjumani

MATERIALLARI

**“BOOKMANY PRINT”
TOSHKENT – 2025**

UO‘K: 494.375

KBK: 81.633.1

D 26

Davlat tili taraqqiyoti: muammo va yechimlar [Matn]: to‘plam / Sh.Sirojiddinov.
– Toshkent: Bookmany print, 2025. – 450 b.

Mazkur to‘plam “Davlat tili taraqqiyoti: muammo va yechimlar” mavzusidagi V respublika an’anaviy ilmiy-amaliy anjumaniga tilshunos olimlar, vazirlik, idoralar, mahalliy ijro etuvchi organlarning davlat tili bo‘yicha maslahatchilari hamda tadqiqotchilar tomonidan yuborilgan materiallardan tashkil topgan. Undagi maqolalarda davlat tilining dolzarb muammolari, ularni hal qilish bo‘yicha takliflar, yechimlar berilgan. To‘plam tilshunoslar, professor-o‘qituvchilar, tadqiqotchilar, magistrlar va talabalar uchun mo‘ljallangan.

(Maqolalarning ilmiy saviyasiga mualliflarning o‘zlari mas’uldirlar).

Mas’ul muharrir:

Sh.Sirojiddinov, filologiya fanlari doktori, akademik

Tahrir hay’ati:

I.Azimov, filologiya fanlari doktori, professor

A.Eminov, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

B.Jo‘rayeva, filologiya fanlari doktori, professor

M.Abdiyev, filologiya fanlari doktori, professor

F.Bobojonov, filologiya fanlari doktori, dotsent

M.Saparniyozova, filologiya fanlari doktori, dotsent

M.Hakimova, filologiya fanlari doktori, professor

M.Umirzoqova, filologiya fanlari doktori, dotsent

H.Yodgorov, filologiya fanlari nomzodi, dotsent

H.Suyunov, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

N.Quldashev, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti huzuridagi Davlat tilida ish yuritish asoslarini o‘qitish va malaka oshirish markazi Ilmiy-metodik kengashida nashrga tavsiya etilgan.

ISBN 978-9910-06-774-7

© “Bookmany print” nashriyoti, 2025.

TILLAR KONTAKTINING IJTIMOIIY ZARURLIGI VA FANDA O‘RGANILISHI (O‘zbek va qozoq tillari misolida)

Baurjan Sayfullayev*

Annotatsiya

Jahon tilshunosligida tillar kontakti masalasiga e’tibor kuchaydi. Ma’lumki, tarixan taqdir bog‘lagan tillar va shevalarning rivojlanish xususiyatlari hamda dunyoda aholi migratsiyalarining kuchayishi tillar kontaktiga keng yo‘l ochmoqda. Bu muammo kishilik jamiyatining barcha bosqichlarida yuz berib kelgan, lekin uni ilmiy asosda o‘rganish jahonda XIX asrda qiyosiy-tarixiy tilshunoslikning paydo bo‘lishi bilan bog‘liq bo‘ldi. Bu davrda paydo bo‘lgan “to‘lqin nazariyasi” tillar orasidagi aloqaning tabiiyligini isbotlab bergan edi. Jahon tilshunosligida tillar kontakti turlicha nomlanib keldi. Ular ichida “tillar ittifoqi” tushunchasi mashhur bo‘lib, u keyingi davrlarda ham davom etdi. “Tillar kontakti” tushunchasi “tillar ittifoqi” tushunchasini to‘laligicha almashtirmasa ham, ularning umumiy xususiyatlarini birlashtira oladi. Bu esa har bir tilshunoslik, shu jumladan, turkologiya oldiga dolzarb masalani keltirib chiqaradiki, bu muammo ushbu tadqiqot ishining asosini tashkil etadi.

Dunyo tilshunosligida tillar kontaktining bir necha turlari qayd qilinadi: tillar kontakti, bilingvizm, so‘z o‘zlashtirish, interferensiya, substrat va boshqalar. Bu ishda ularni e’tiborga olgan holda, yangi jarayon, ya’ni tarixan bir makonda yashayotgan o‘zbek va qozoq xalqlari tillari kontakti natijasida shu xalqlar arealidagi ikki tillilik sharoitida yaratilgan qozoq tilidagi badiiy adabiyotda o‘zbek tiliga xos bo‘lgan xususiyatlarning aks etishi masalasini o‘rganilish dolzarbdir. Shuningdek, fanda tillar kontaktiga bag‘ishlangan tadqiqotlarning natijasi bo‘lgan matnlar leksik-semantik, sintaktik-semantik, funksional-uslubiy, kommunikativ-pragmatik va boshqa aspektlarda nazariy tadqiq qilish ham rivojlantirilmoqda. Endilikda tillar kontakti xususiyatlarini nazariy o‘rganish bilan birga, uning biz ilgari surayotgan yangi yo‘nalishi, ya’ni dialektal zonadagi yetakchi tilning kontaktdagi tilga ta’siri hamda ularning shu arealdan yetishib chiqqan adiblar ijodida qo‘llanishiga bag‘ishlangan ishlar ham bor, lekin O‘zbekiston Respublikasidan yetishib chiqqan va o‘zbek shevalari ruhiyatida shakllangan adiblar asarlarida o‘zbek tili va uning shevalariga xos xususiyatlaridan foydalanishi masalasi hozirgacha tadqiqot obyekti bo‘lmagan. Bu muammo ushbu dissertatsion ishning *dolzarb* masalasi sifatida qaralmoqda va u O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qo‘yayotgan til siyosatiga monand amalga oshirilmoqda.

* Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b. Nizomiy nomidagi O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti, sayfullayevbaurjan@gmail.com

Mustaqillik davrida jahon tillari va shevalarining hozirgi taraqqiyot tarzi unga nisbatan yangi yoʻnalishlarda tadqiqot ishlarini olib borishni taqozo qilmoqda. Maʼlumki, Oʻzbekiston Respublikasining Toshkent, Buxoro, Navoiy, Jizzax viloyatlarida oʻzbeklar bilan yonma-yon, aralash holda qozoq xalqi vakillari yashaydi. Ularning tili qozoq tili boʻlsa-da, oʻzbek tilini kundalik turmushida qoʻllay oladilar. Boshqacha aytganda, bilingvizm hukm suradi. Shu arealdan qozoq xalqining shoir va yozuvchilari ham yetishib chiqqan. Ular qozoq tilida ijod qiladilar, lekin asarlari tilining oʻziga xos xususiyatlari borki, ular shu areal turmush tarzi, mahalliy ishlab chiqarish, siyosiy, madaniy jarayonlar, oʻzaro muloqot tufayli oʻziga xos shevalarni, yaʼni oʻzbek tilining kuchli taʼsiridagi shevalarini hosil qilgan. Bu shevalar qadiman shakllangan boʻlib, mahalliy qozoq xalqi ruhiyatiga singib ketgan. Bu esa mahalliy qozoq adiblari asarlari tilining qozoq adabiy tilidan oʻziga xosligi bilan ajralib turishiga olib kelgan. Albatta, bu kabi jarayonlarni faqat oʻzbek-qozoq tillari munosabatida emas, balki dunyoning barcha regionlarida ham qayd qilish mumkin.

Kalit soʻzlar: lingvistika, dialektologiya, kontaktologiya, nutq, tasodifiy, doimiy, substrat, superstrat, adstrat, ikki tillilik, interferensiya, konvergensiya, divergensiya.

Social Necessity of Language Contact and Science Learning (On the example of Uzbek and Kazakh languages)

Abstract

In the field of world linguistics, there has been a marked increase in focus on the phenomenon of language contact. It is widely recognized that the developmental traits of languages and dialects with historical connections, coupled with the rising global migration of populations, are creating significant opportunities for language interaction. This occurrence has been present throughout various stages of human civilization; however, its systematic examination commenced in the 19th century with the advent of comparative-historical linguistics. During this time, the “wave theory” was introduced, illustrating the inherent relationships among languages. Within the realm of global linguistics, language contact has been described through various terminologies, with the notion of “language union” gaining considerable prominence and remaining pertinent in subsequent eras. While the term “language contact” has not entirely supplanted the concept of “language union”, it effectively encompasses their common attributes. This situation raises an urgent concern for all branches of linguistics, including Turkology, and this issue serves as the foundation for the present research.

Various forms of language contact are documented within the field of global linguistics, including phenomena such as bilingualism, lexical borrowing, interference,

substratum influences, and others. This research specifically addresses a novel phenomenon: the manifestation of Uzbek linguistic characteristics in Kazakh literary works produced in a bilingual context where Uzbek and Kazakh communities have coexisted historically. This topic holds significant relevance. Furthermore, existing literature on language contact has been analyzed through various theoretical lenses, including lexical-semantic, syntactic-semantic, functional-stylistic, and communicative-pragmatic perspectives. Currently, in addition to theoretical explorations of language contact features, there is an increasing interest in the emerging area we propose, which examines the impact of the dominant language within a dialectal region on the contact language and its representation in the writings of local authors. Although some studies have addressed this theme, the specific issue of Uzbek authors from the Republic of Uzbekistan, who have been influenced by Uzbek dialects and incorporate distinct features of the Uzbek language and its dialects into their literary works, remains underexplored. This concern is identified as a critical issue in this dissertation and is aligned with the language policy established by the President of the Republic of Uzbekistan.

The era of independence has prompted a reevaluation of the current trends in the development of world languages and dialects, necessitating research in innovative directions. It is widely recognized that in regions of Uzbekistan, including Tashkent, Bukhara, Navoi, and Jizzakh, the Kazakh community coexists and interacts with the Uzbek population. While Kazakh serves as their primary language, the Kazakh people are also proficient in Uzbek, reflecting a prevalent state of bilingualism. This region has produced notable poets and writers from the Kazakh community who compose in Kazakh; however, their literary works are characterized by distinctive linguistic traits influenced by the local lifestyle, economic activities, political dynamics, cultural processes, and social interactions. Consequently, this has resulted in the emergence of unique dialects that are significantly shaped by Uzbek. These dialects possess deep historical significance and have become an integral part of the local Kazakh identity, leading to a divergence in the language utilized by local Kazakh authors from the standard Kazakh literary form. Such phenomena are not exclusive to the interaction between Uzbek and Kazakh but can be observed in various regions across the globe.

Keywords: Linguistics, dialectology, contactology, speech, accidental, continuous, substrate, superstrat, adstrat, bilingualism, interference, convergence, divergence.

Dunyoda hech bir til yo‘qki, u boshqa tillar bilan aloqada bo‘lmasin. Bunday aloqalar obyektiv reallik bo‘lib, u tilshunoslikda doimiy ravishda ilmiy tadqiqotlarga asos bo‘lib kelgan (Ashirboyev, 2023, 66-bet) va hamon bu muammo kun tartibidan olinmagan. Bu masala areal lingvistikada yangi mazmunga ega bo‘ldiki, u bilan

maxsus bo‘lim – kontaktologiya shug‘ullanmoqda, ya’ni aloqadagi til va shevalar kontaktologiya bo‘limining obyekti bo‘lib qoldi. Fanda lingvistik kontaktologiya turli talqinlari bor. Bu muammo *kontakt lingvistikasiga* xosdir. Kontakt lingvistikasi yoki lingvistik kontaktologiya ham areal lingvistika, ham umumiy tilshunoslikda umumiy muammo sifatida qaraladigan bo‘ldi. Shundan umumiy tilshunoslik asosan, tillar kontakti bilan shug‘ullansa, areal lingvistika, yuqorida ta’kidlanganidek, har ikkala lingvistik hodisani, ya’ni tillar kontaktini va shevalar kontaktini tadqiq qiladi.

Barcha muammolar uning asosiy kategoriyalarida namoyon bo‘ladi, ya’ni ular tillar kontakti, bilingvizm, so‘z o‘zlashtirish, interferensiya, substrat, superstat, konvergensiya, divergensiya, kodlarni ulash, pidjin va kreol tillaridir. Albatta, bunda til kontakti tushunchasi markaziy o‘rin tutadi (Богана, 2016, 10-бет).

Til kontaktining xarakterini U. Vaynrayx quyidagicha talqin qilgan edi:

1) kazual, ya’ni doimiy bo‘lmagan, tasodifiy kontakt; bu tillarning muttasil bo‘lmagan kontakti tufayli yuz beradi, uning oqibatida u qadar ko‘p bo‘lmagan so‘z o‘zlashtiriladi;

2) permanent, ya’ni doimiy va yaqin kontaktlar, ular tillarning intensiv kontaktlaridir (Вайнрайх, 1979, 255-бет). Qozoq-o‘zbek tillarining biz o‘rganayotgan arealdagi kontaktini keyingi kontaktlar jumlasiga kiritish mumkin, chunki bu arealdagi qozoq-o‘zbek til aloqalari qadimiy va doimiydir (Айдаров, 1977, 144-бет).

U.Vaynrayx yana shunday deydi: “... til vaziyatini kuzatganimizda tilning ijtimoiy-madaniy sharoiti va hodisasining o‘zaro bog‘liqligi yorqin namoyon bo‘ladi” (Вайнрайх, 1979, 187-бет). Demak, u arealning ijtimoiy-madaniy holatiga urg‘u bermoqda.

Shuni aytish lozimki, tillarning tashqi tarixiy rivojlanishida tillar kontaktining o‘rni alohida. Ular u yoki bu darjada boshqa tillar, xususan, qo‘shni tillar bilan aloqada bo‘lganligi uchun ozmi-ko‘pmi aralashgan bo‘ladi. Bu jarayon ikki xalqning aralash yashagan areallarida yaqqol ko‘zga tashlanib turadi. Uning natijasida, birinchidan, turli xildagi o‘zlashmalarni vujudga keltiradi; ikkinchidan, konvergent tillarni (ular qarindosh tillar ham bo‘lishi mumkin) hosil qiladi; “uchinchidan, umumiy yordamchi” tillarni hosil qiladi; to‘rtinchidan, tillar assimillatsiyasiga olib keladi.

Tillar kontakti – jamiyat taraqqiyoti bilan bog‘liq murakkab va ko‘pbosqichli jarayon. Uni yana ham ochiqalaydigan bo‘lsak, tillar kontakti ekstralingvistik omillar bilan belgilanadi, ya’ni unda madaniy, iqtisodiy va etnik omillar yetakchi rol o‘ynaydi.

Yana bir manbada tillar kontaktining yuzaga kelishida ikki va undan ortiq tillarning ta’siri e’tiborga olinib unda turli etnik va til guruhlarining faol xo‘jalik yuritishlari, ularning siyosiy va madaniy munosabatlari muhim ekanligi uqtiriladi.

“Tillar kontakti” tushunchasi o‘z tabiiyligicha tushunilishi, ya’ni kontakt kuch bilan amalga oshirilmasligi va hech kimga ziyon yetkazilmasligi e’tiborga olinishi hamda “til nizo (konflikti)”lari tushunchasiga zid ekanligi ta’kidlanadi.

Shu bilan barobar tillar kontakti natijasi sifatida qaraladigan interferensiya tilning strukturasiga jiddiy ta’sir etmasligi, aksincha, u qulay sharoitda til sistemasining tuzilishiga, uning ichki qurilishining o‘zgarishiga olib kelishi ham aytiladi.

Axborot tizimlarida tillar kontaktining bir tomonlama bo‘lishi haqida ham ma’lumotlar beriladi. Bunga xitoy tilining yapon tiliga va ingliz tilining hindiy tiliga kuchli ta’siri bo‘lganligi misol sifatida keltiriladi.

Shuningdek, ko‘pchilik hollarda tillar kontakti o‘zaro aralashuvini hosil qilishi ham tilga olinadi. Bunga misol sifatida Shvetsariya fransuz regionining nemis regionining nemis tili varianti bilan aralashuvini ko‘rsatiladi. Ko‘p hollarda tillar kontakti tillarning dialektlari, jargonlari va til uslublariga ta’sirida ko‘rinishi aytiladi. Unga bir necha misollar keltiriladi. Shulardan biri Rossiyada XIX asrning birinchi yarmida dvoryanlar orasida fransuz tili ustun bo‘lganligi keltiriladi.

Ko‘rinadiki, tillar kontakti tushunchasi davrning eng munozarali va hali ham yechimini topmagan masalalardan biri bo‘lib qolaveradi. Albatta, bular ichida qozoq va o‘zbek tillari kontaktining o‘zbek tili tarkibida yuz berishi bu masalani yanada to‘ldiradi.

Bu masala qozoq tilidagi adabiyotlarda ham muhokama obyekti bo‘lgan. Shu jumladan, ko‘p yillik tarixga ega bo‘lgan qozoq va o‘zbek tillari o‘rtasidagi munosabatlar, shubhasiz, bu tillarning lug‘at tarkibida o‘z izini qoldirgan va bu jarayon hozirgacha davom etmoqda.

Tadqiqotimizda ilmiy-nazariy jihatdan kam o‘rganilayotgan tarixiy til munosabarlari va hozirgi zamon til uzluksizligi, tilning faoliyat jarayonlari, lingvistik kontaktologiya muammolari, qozoq va o‘zbek tillari asosida, leksik elementlarning kirib borishi va o‘zlashtirilishi jarayonlari, til munosabatlarining muammolarini har tomonloma o‘rganish uchun dolzarbdir.

Tildagi o‘zgarishlarining aniq sabablari kontaktologiyadagi til nazariyasining eng murakkab va munozarali masalalaridan biridir. Ushbu muammoni hal qilishda muhim qadam tildagi o‘zgarishlarning ichki va tashqi sabablarini farqlashdir. Til tizimi elementlarining yoki so‘zlovchining ongi va irodasidan tashqaridagi ichki jarayonlarning o‘zaro ta’siri natijasida turli o‘zgarishlar yuz beradi. Bunda til rivojlanishining ichki omillariga e’tibor qaratish lozim. Ba’zan til o‘zgarishlariga xalq tilidan tashqari ijtimoiy munosabatlar, iqtisodiy va madaniy taraqqiyot va boshqa omillar ta’sir ko‘rsatadi. Tildagi o‘zgarishga olib keladigan omillardan biri bu tilning boshqa til bilan aloqasidir. Tillarning o‘zaro aloqalari lingvistik, psixologik, ijtimoiy, etnik-tarixiy va boshqa sabablar bilan chambarchas bog‘liq. Bu – murakkab

va ko'p qirrali hodisa. Xalqning ma'lum bir davrdagi iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, madaniy hayoti, boshqa mamlakatlar bilan munosabatlari, urf-odatlarini eng avvalo uning tilidan, so'z ma'nosidan yaqqol seziladi.

Tilning o'ziga xosligi ikki omilga, ya'ni tilning paydo bo'lishi va uning boshqa tillar bilan o'zaro ta'siriga bog'liq bo'lib, ular orqali til munosabatlari amalga oshiriladi.

Bir-biri bilan yaqin va bir davlatda yashayotgan ko'p millatli xalqlar o'zaro munosabatda bo'lganligi uchun tili va madaniyatiga ta'sir qiladi. Qarindosh tillarning barchasi ham yaqin aloqada bo'la olmaydi, balki qo'shni qarindosh tillargina aloqada bo'ladi va tillar kontakti yuz beradi.

Hozirgi kunda kontaktologiya faniga alohida e'tibor qaratilmoqda. Kontaktologiya tilshunoslikda til aloqalarining turlari, paydo bo'lishi va rivojlanishini o'rganuvchi bo'limidir. Kontaktologiya sohasi XIX asr 50-yillarida paydo bo'lib, tilshunoslikda alohida yo'nalish sifatida shakllandi (Жеробило, 2011, 280-бет).

Lingvistik kontaktologiya – bu ma'lum bir ijtimoiy-tarixiy vaziyatda ikki yoki undan ortiq tillar o'rtasidagi aloqa mexanizmini o'rganadigan alohida lingvistik fan bo'lib, tillararo o'zaro ta'sirining ekstralingvistik (ijtimoiy, psixologik, etnologik va boshqalar) omillarini va til aloqalarining lingvistik jarayonlarini bog'lovchi hodisalarni ko'rib chiqadi.

Kontaktologiya nazariyasi, yuqorida ham ta'kidlanganidek, substrat, superstrat, adstrat, bilingvizm, interferensiya, konvergensiya, divergensiya va boshqa muhim hodisalar bilan chambarchas bog'liq.

Umumiy til aloqasi ikki turli til yoki dialekt vakillari bir-biri bilan so'zlashganda yoki yozishganda sodir bo'ladi. Boshqacha qilib aytganda, ikki yoki undan ortiq til jamoalari orasida vujudga keladigan nutqiy aloqa tillar kontaktidir. Masalan, qozoqlar va o'zbeklar bir-biri bilan so'zlashganda, ya'ni kontaktga kirishganda qozoq-o'zbek til kontakti sodir bo'ladi. O'zaro aloqaga kirishgan tillardan biri, ya'ni asosiy til "kontakt tili" deb ataladi. Tadqiqot obyektimiz bo'lgan qozoq va o'zbek tilida so'zlashganda, kontakt tili o'zbek tili bo'ladi. Ammo rus tilida ham so'zlashishlari mumkin. Bu holda rus tili kontakt vositasi sifatida qo'llangan uchinchi til bo'lib, bu "vositachi til" deb ataladi.

Kontaktologiya nazariyasini o'rganar ekanmiz, biz qozoq va o'zbek tillari o'rtasidagi munosabatlarga asoslangan ikki tillilikda interferensiya jarayonlariga e'tibor qaratamiz.

Avval aytilganidek, O'zbekiston Respublikasining bir qator hududlarida qozoq millati vakillari o'zbeklar bilan yonma-yon yashab kelmoqda. Ularning ona tillari qozoq tili bo'lsa-da, o'zbek tilini yaxshi biladi va kundalik hayotda bu tildan foydalanadi. Boshqacha aytganda, qozoqlar ikki tillilik sharoitida yashaydi.

O'zbek tili qozoq tiliga fonetik, leksik-semantik, morfologik, sintaktik va uslubiy ta'sir ko'rsatgan. Bu haqida quyiroqda fikr yuritiladi.

Aytish joizki, O'zbekistondagi o'zbek shevalariga xos mintaqaviy xususiyatlar O'zbekiston qozoqlari nutqida o'z ifodasini topgan va hatto, mahalliy qozoq yozuvchilarining asarlarida ham qo'llangan.

Badiiy asar murakkab hodisa, u milliy o'ziga xoslik bilan sug'orilgan. Adabiy asar matnida uchraydigan turli til hodisalari milliy tilning barcha tarmoqlaridan olingan.

Badiiy so'z ustalari xalq hayotidan, xalq tilidan o'zlariga kerakli materiallardan foydalanadilar. Binobarin, adabiy til bilan birga faqat ma'lum bir hududning o'ziga xos xususiyatlari mavjud.

Nasriy asarlarda sheva xususiyatlari, asosan, personajlar tilida hamda ba'zan muallifning nutqida ham qo'llaniladi. Yozuvchilar ko'pincha sheva xususiyatlaridan foydalanib hudud vakillarining turmush tarzini ko'rsatishda, ma'lum bir hududga xos moddiy va ma'naviy madaniyat xususiyatlarini berishda, xalq tabiati va ruhiyatini real tasvirlashda foydalanadilar (Богана, 2016, 10-бет).

Ma'lumki, tillar kontakti ikki va undan ortiq tillar hamda til ko'rinishlarining ta'siri va o'zaro ta'siri tufayli yuz beradi. Tillarning ko'rinishlaridagi kontakt, ya'ni shevalarning boshqa til shevalari bilan kontaktga kirishishlari tillar aralashgan va tutashgan hududlarda yuz beradi. Tillar kontakti *aloqadagi tillar* tushunchasi bilan ham yuritiladi.

Adabiyotlarda tillar juda qadim vaqtlardan boshlab o'zaro aloqada bo'lganligi aytiladi (Благова, 1985, 37-бет). J.Bogana va Y.V.Xapilinalar tilda muayyan innovatsiyalarning shakllanishida tillar kontaktining muhim ekstralingvistik faktor ekanligini va har bir til o'zining diaxron jarayonida qo'shni tillarning ta'sirini boshidan o'tkazishini ta'kidlaydilar (Богана, Хапилина, 2016, 10-бет).

Ma'lumki, tillarning bir-biriga ta'siri masalasida turli yondashuvlar bor: substrat, superstrat va adstrat (Рахмонбердиев, 1989, 5-бет).

O'zbekistondagi qozoq va o'zbek tillar kontakti natijasini ko'proq adstrat tushunchasi bilan bog'lash mumkin, ya'ni bu xalqlarning uzoq yillar davomida bir arealda yashashi va o'zaro doimiy tillar kontaktida bo'lishi, ularning tillarida o'zaro ta'sirni yuzaga keltirgan va o'zaro o'xshash qatlamni hosil qilgan.

Ikki xalqning bir arealdagi o'zaro aloqasi ijtimoiy zaruriyat hisoblanadi hamda bu ikki xalqning barcha faoliyat sohalarida namoyon bo'ladi: dastlab ularning xo'jalik faoliyatida, so'ng madaniy hayotida va albatta, tilida ko'rinadi. Qozoqlar va o'zbeklar yashayotgan areallarda kundalik muomala, radio, axborot turlaridan foydalanish, televidenie va ommaviy majlislarning o'zbek tilida olib borilishi, majlislar hamda o'zbek tilida ish yuritishlar kontaktlarni belgilovchi faktorlar

hisoblanadi. Biz uchun ularning til aloqalari muhim bo'lib, bu shunchaki oddiy aloqa emas, balki intralingvistik mohiyatga ega bo'lgan aloqadir.

Bir tilning ikkinchi tilga ta'siri, dastavval, leksika va sintaksis sohasida bo'ladi. Tilning tilga morfologik va fonetik ta'siri kuchsizdir (Рахмонбердиев, 1989, 5-бет) degan fikr bor. Bu masalada, bizningcha, uzil-kesil fikr aytishga shoshilish o'rinli emas. To'g'ri, fonetik qonunlar va jarayonlarning ta'siri nisbatan kuchsiz bo'lishi mumkin, lekin morfologik strukturada affikslar va ularning so'zga qo'shilish jarayonidagi morfonologik holatlarda o'zaro ta'sirlar yuz berishi qayd qilinayotgan hodisalardir.

Tillar kontaktini o'rgangan Q.X.Raximjonov uning yuz berishini ikki tilning aralashuvi natijasi deb biladi hamda uni antropotsentrik nazariya "inson faoliyatida til" va "inson va uning tili" bilan bog'laydi (Рахимжанов, 2005, 10-бет). Yana u qozoq va rus tillari nutqiy faoliyatida kontaktlarning uch yo'nalishi (kanali)ni belgilaydi, ya'ni og'zaki, og'zaki-yozma va yozma. Og'zaki yo'nalishi muloqotning kundalik hayotda, og'zaki-yozma shakli esa madaniy hayotda reallashadi, ya'ni ma'naviy muloqot, tarjima, adabiy aloqalar, va b. Bu masalani u regionlashtirish tushunchasi bilan ham bog'laydi va shunday yozadi: "Tildagi regionallashtirish bu muayyan region doirasida amal qiladigan milliy madaniyat va tillaridagi o'ziga xos xususiyatlarning biror hududga xoslanganligi bilan xarakterlanadigan ma'lum bir joydagi etnos va uning ijtimoiy-hududiy birligi doirasida tillarning amalda bo'lishi va o'zaro ta'siridir". Buni biz muayyan til areali tushunchasi bilan tenglashtirgan bo'lar edik. Q.X.Raximjonov qozoq-rus tillari kontaktlari to'g'risida fikr yuritgan edi. Bu jarayondagi qozoq tilidan rus tiliga o'tgan mahalliy so'zlarni *kazaxizmlar* deb yuritgan. Bu terminning hayotiyligi masalasi, albatta, ochiq qoladi. Bunga qo'shimcha qiladigan bo'lsak, *kazaxizmlar* deganda uni regional planda emas, balki umumtil planida qo'llaganida to'g'ri maqomiga ega bo'lar edi. Bu termini bir muallif ishlatgan qozoqcha so'zlarga nisbatan qo'llash, bizning nazarimizda, sun'iy "termin" bo'lib, kutilgan natijani bermaydi.

Ma'lumki, tillar kontakti bilingvizmni keltirib chiqarishi isbotlangan. Bu masala fanda atroflicha o'rganilgan bo'lib, uning badiiy adabiyotdagi xususiyatlari to'g'risida maxsus dissertatsiya ham himoya qilingan. Xususan, yuqorida biz tilga olgan Q.X.Raximjonov ayni shu mavzuda dissertatsiya himoya qilgan. Unda ta'kidlanishicha, uning juda ko'p shakllari va amaliyotda qo'llanish omillari borki, ulardan biri muayyan regiondagi ikki tilning o'zaro ta'siri va uning shu arealdan yetishib chiqqan adiblar ijodida aks etishidir. Bu jihatdan o'rganilayotgan mavzu materiallari har tomonlama bilingvizm xususiyatlari mahsuli ekanligini anglatadi.

K.Rahmonberdiyev tillar kontaktini juda sodda qilib tushuntiradi: "... ikki va yoki undan ortiq til vakillari orasida vujudga keladigan nutqiy aloqa til kontaktidir". Bu fikr adabiyotlarda mavjud fikrlar asosida yuzaga kelgan, lekin bu masalada uning

yanglish qarashlari ham bor, ya'ni tillar kontaktida tillarning bir-biridan yiroqlashishi haqidagi fikriga qo'shilib bo'lmaydi. Lekin u o'zbek tili kontaktlari to'g'risida fikr yuritar ekan, o'zbek-qozoq tillar kontaktini tilga olmaydi, balki rus va tojik tillari kontakti bilan bog'liq hodisalarga to'xtaladi.

Fanda lingvistik kontaktologiyani so'z o'zlashtirish, o'zaro ta'sir, boshqa til funksiyasining qabul qilinishi, lingvistik gegemoniya, "til ittifoqi" kabi shakllari borligi avval aytilgan edi. Ularning quyidagi turlari to'g'risida ma'lumot beriladi:

so'z o'zlashtirish. Bu hodisa bevosita aloqada bo'lgan tillar va shevalarda namoyon bo'ladi, shuningdek aloqada bo'lmagan tillardan ham so'z o'zlashtirish yuz beradi.

Ma'lumki, o'zbek tilining so'z o'zlashtirish manbalari talaygina. Ularga fors (tojik), arab, rus, ingliz tillarini kiritish mumkin, qadimda ham fors, xitoy, grek tillaridan so'z olingan va ular hozirgi o'zbek tilida tub so'zlarimiz kabi qo'llanmoqda, shu fikrni qozoq tiliga nisbatan aytishimiz ham mumkin, lekin xitoy, grek, arab tillaridan so'z o'zlashtirish kontakt natijasi emas. Hozirgi davrda rus va tojik tili bevosita aloqadagi til deb hisoblansa, ingliz tili xalqaro aloqadagi til, arab tili esa dinimiz tili sifatida va ma'rifat tili sifatida o'rni bor. Bu tillardan o'zbek tiliga so'z o'zlashtirish turli darajada davom etmoqda va bunday o'zlashtirishning o'z qonuniyatlari borki, u bilan har bir millatning o'z tilshunosligi shug'ullanadi. Har bir tilga, shu jumladan, o'zbek tiliga kontaktdagi tillardan so'z o'zlashtirish bu tilni qarindosh tillardan birining boshqasiga nisbatan ayrim farqli xususiyatini keltirib chiqaradi.

Shuningdek, adabiy tilga so'z o'zlashtirish va shevalarda so'z o'zlashtirish tarzi aynan emas, ya'ni adabiy tilga u yoki bu tildan so'z o'zlashganda manba tilidagi adabiy shakli o'zlashadi, hamda u tilning orfografik va orfoepik me'yorlari saqlanadi, masalan, rus tili orqali o'zlashgan *motor* so'zining rus tilidagi shunday me'yorlari saqlanadi, lekin u singarmonizmli shevalarda *mätär*, *mätur* va boshqa talaffuzlarga ega bo'ladi, demak, aksariyat o'zlashgan so'zlar shevalarda qayta "ishlov"dan o'tadi;

o'zaro ta'sir. Bunda tillar bir tomonlama emas, balki ikki tomonlama ta'sir etadi. Ma'lumki, o'zbek tili, uning shevalari turkiy va turkiy bo'lmagan tillar bilan chegaradosh hamda bir arealda bo'lganligi bois o'zaro aloqada bo'lib kelmoqda. Bu tillar ko'p asrlardan beri aloqada bo'lib, tillarning shu zonadagi o'ziga xosligini ta'minlash bilan birga shu tillar shevalarining ham o'ziga xosligini hosil qilgan. Bunday zonalarda aholi ikki tilli bo'ladi, ya'ni siyosiy jihatdan mavqeyi ustun bo'lgan tilni va uning shevasini o'rganish keng tarqaladi. "Qozoq dialektologiyasi" mualliflari O'zbekiston bilan yondosh yoki O'zbekistondagi qozoqlar tilida (shevasida) o'zbek tilining sezilarli ta'sirini ko'radilar, lekin unga o'zbek tilining ta'siri deb qaramaydilar, balki qozoq tili shevasiga xos xususiyat deb talqin qiladilar, jumladan, *og'ilxona*, *qistama* (*qishlov*), *zingg'ittay* (*o'ta kichkina*), *anaqi-munaqi*

(*unaqa-munaqa*), *onsha-munsha* (*uncha-muncha*), *azin-shag'in* (*ozgina-chog'likkina*), *askadi* (*oshkadi*), *belkurak* (Қалиев, 1967, 97-101-бетлар) Bu fikr sof dialektologik jihatdan yondashish tufayli yuzaga kelgan, lekin bunday qarashni xato deb bo'lmaydi. Bu qarindosh til misolidagi kontaktning natijasi bo'lsa, qarindosh bo'lmagan til misolida Buxoro shevalariga tojik tilining sezilarli ta'sirini M.Mirzayev tadqiqotlari isbotlaydi, jumladan, u tojik tilidan yondosh o'zbek shevalariga *resha*, *bedona*, *alvonj* (arg'imchoq), *gavora* (beshik), *choygardon* (cho'mich) kabi o'zbek tiliga o'zlashmagan so'zlarning qo'llanishini ko'rsatadi (Мирзаев М, 1961, 164-167-бетлар).

Lingvistik gegemoniya. Tillarning xalqaro tus olishi natijasida dunyoda ingliz, fransuz, nemis, portugal, rus va boshqa tillarning keng yoyila boshlashi bu tillarning funksionalligini ta'minlaydi va kontaktlarning rivojlanishiga olib keladi hamda bu tillar, hatto, davlat darajasiga ham ko'tariladi, jumladan, Hindistonda ingliz tili davlat tili sifatida qo'llangan, hozir ham ingliz tilining uchinchi davlat tili sifatida qo'llashga harakat boshlangan.

Gegemon tilni xalqaro til tushunchasi bilan ham bog'lash mumkin. Bu jihatdan ingliz tilining ustunligi ma'lum.

Siyosiy jarayonlarda hukmronlik qilayotgan xalq tili dastlab gegemon til, keyin esa g'olib til ko'rinishiga ega bo'ladi.

Lingvistik gegemoniyani bir qarashda shevalarga nisbatan, ya'ni adabiy tilning tayanch dialektiga nisbatan qo'llash mumkindek tuyuladi. Bunday qarash yanglishdir, chunki tayanch dialekt va adabiy til me'yori tushunchalari korrelativ emas. Tayanch dialekt adabiy tilning muhim bo'lgan ayrim unsurlarinigina oladi, boshqacha aytganda, u tayanch dialektning barcha xususiyatlaridan iborat bo'lmaydi. Demak, u gegemonlik qila olmaydi, lekin tayanch dialektning ayrim xususiyatlari, qonunlari gegemonlik qilishi mumkin, jumladan o'zbek adabiy tilida singarmonizmni yo'qotgan shevalar gegemonlik qiladi, lekin biror sheva ikkinchisiga gegemon bo'la olmaydi. Adabiy til qachonki bir dialekt asosiga quriladigan bo'lsa, shundagina sheva gegemonligi to'g'risida fikr yuritish mumkin bo'ladi.

G'olib til. Bu siyosiy harakatlar natijasi o'laroq paydo bo'ladi. Bunda bir til o'rnida boshqa til aholi muomalasiga kiradi. Bunda mag'lub til muomaladan chiqib ketadi va yo'qolib ketishiga olib keladi. Bunday kontakt qadimgi Xorazm tilining turkiy tilga o'tishida ko'rinadi. Shuningdek, bunga Amerikadagi bir qator tillarning ingliz tili tomonidan siqib chiqarilishini ham keltirish mumkin.

Lingvistik kontaktning yorqin ko'rinishlaridan biri *interferensiyadir*. Bu hodisa tillar tutashgan hududda yuz beradi. Bunda kesishuvchi ikki tilning izoglossalari aralashadi va bu zonada har ikki tilga qisman o'xshash, aslida ulardan farq qiladigan oraliq hodisa paydo bo'ladi. Shu jihatdan, ya'ni o'zaro ta'sir tufayli bu zonada umumiylik bo'ladi. Albatta, kesishuvchi tillardan biri chet tili sifatida o'rganiladigan

bo'lsa, interferensiya tilning normativ holatini to'g'ri ko'rsatib bera olmaydi va til o'rganishda qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Interferensiya kontakt jarayoni va natijasi sifatidagina o'rganiladi.

Lingvistik kontakt faqat tillar tutashgan hududlardagina emas, balki turli etnik guruhlariga taalluqli bo'lgan shevalar orasida ham yuz beradi. Uning namunasini turkiy tillardan ozarbayjon shevalari tadqiqotlarida uchratish mumkin. M.Sh.Sheraliyev ozarbayjon shevalaridan *geokchay* shevasi sharqiy va g'arbiy shevalar, *jebrail* shevasi g'arbiy va janubiy shevalar ta'siriga uchrab oraliq sheva bo'lib qolganligining xabarini beradi (Шералиев, 1963, 39-40-бетлар).

O'zbek tilining qipchoq va qarluq lahjalariga oid shevalarning aralashishi masalasini Qashqadaryo shevalari misolida T. Qudratov tadqiq qilgan (Қудратов, 1968, 19-20-бетлар). Demak, "*til ittifoqi*" bir til ichida, shevalarning o'zaro ta'siri natijasi o'laroq pirovard natijada oraliq shevalarning yuzaga kelishiga olib keladi.

G'. Qaliyev va Sh. Sariboyevlar asarida Janubiy Qozog'iston qozoq shevasiga o'zbek shevalaridan o'zlashgan *č* // *ш* mosligi: *čir* (шыр); *y* // *j* mosligi: qayerde (қайжерде) kabi fonetik jarayonlarni uchratish mumkin. Shuningdek bu asarda:

o'zbek tilining ayrim fonetik xususiyatlari saqlangan so'zlar: *iloj* – *ылаж*, aslida – *äsili* (bu so'z o'rnida qozoq adabiy tilida *затында* so'zi qo'llanadi), ko'zlari javdiragan – *жәудіреген* (qozoq tilida bu so'z yo'q, *жәудіреу* so'ziga sinonim), orqali – *арқалы* (арқылы), kosa – *кәсе* (кесе), tanglay – *таңлай* (таңдай);

o'zbek tili morfologik xususiyatlari saqlangan so'zlar: tenglik – *теңлік* (теңдік), o'tiribman – *отырыппын* (отырмын), aytgin – *айтқын* (айт);

o'zbek tilidan o'zlashtirilgan so'zlar: oshiq-moshiq – *ашық-машық* (есіктің топсасы), qo'shni – *қоңсы, қошны* (көрші), tog'a – *таға* (нағашы), hashar – *асар* (adabiy tilida bu so'z yo'q) va b. Bu asarning 81-sahifasida o'zbek tilida o'tgan 10 dan ortiq so'zlar beriladi (Қалиев, 1967, 97-101).

Tillarning aloqasi bilan tilshunoslar qadimdan shug'ullanib kelishgan. Jumladan, Mahmud Koshg'ariyning tillar kontakti natijasida yuzaga kelgan o'zgarishlar, xususan, **h** undoshining paydo bo'lishi haqidagi fikri e'tiborli: "... bo'g'iz tovushlaridan **ḥ**, **ḥ** harflari (*harf* termini *tovush* ma'nosida ham qo'llanishda bo'lgan) ham turkiyda yo'qtur. ... Ammo **ḥ** qo'llangan hech bir so'z yo'q. Goho Xo'tanliklar so'zida bu harf uchraydi, chunki u hind tilining ta'siridir. Kanjaklar tilida ham **ḥ** harfi uchraydi, deyish mumkin. Chunki bu ham turkcha emasdir" (ДЖИТ I, 1960:49; ДЖИТ. 2017:17). Turkiy va forsiy tillari kontaktologiyasi to'g'risida Alisher Navoiyning "Muhokamat ul – lug'atayn" asaridagi fikrlar barchamizga ma'lum.

Shuni aytish lozimki, tillar kontakti tushunchasi til o'rganish degan tushunchaga korrelativ bo'la olmaydi hamda qaysi til bo'lishidan qat'i nazar o'rganilayotgan va ta'lim berilayotgan til kontakt til deb yuritilishi to'g'ri bo'lmaydi. Shu ma'noda O'zbekistonda *ingliz tilining tarqalishi* degan tushunchadan

foydalanishi ham yanglishdir (Рахимов, 2018), chunki tilning tarqalishi aholi tomonidan shu tilning o'zlashtirilishini anglatadi, balki bir guruh shaxslarning yoki boshqa tilning o'ranilishi kontaktlik natijasi emas.

O'zbekiston hududidagi muayyan bir tilning boshqa tillar bilan kontaktiga bu terminni qo'llamasdan ham e'tibor qaratilgan. Jumladan, I.Quttimuratova "Qoraqalpog'iston Respublikasi Qo'ng'iro't tumanidagi qozoq shevasi" nomli tadqiqot ishida shu tumandagi qozoqlar shevasiga qoraqalpoq, turkman, o'zbek tillarining ta'siri haqida fikr yuritadi (Куттымуратова, 2018, 21-бет). Xulosa shuki, mahalliy adib asarlaridagi o'zbek tili orqali o'zlashgan so'zlarning aksariyati hozirgi kundagi xususiyatlaridir. Aslida bu arealdagi qozoq-o'zbek til aloqalari qadimiy va doimiydir.

Tillar kontakti — ijtimoiy hayotning tabiiy va zaruriy natijasidir. Har bir xalqning tili boshqa tillar bilan aloqa jarayonida rivojlanadi, boyiydi va yangilanadi. Shu bois kontakt lingvistikasini o'rganish zamonaviy tilshunoslikning muhim yo'nalishlaridan biridir. Til kontaktini to'g'ri yo'naltirish, begona unsurlarni tanqidiy qabul qilish, milliy til me'yorlarini saqlash — bu bugungi kun til siyosatining asosiy vazifalaridan biridir.

O'zbek va qozoq xalqlari qadimdan bir-biriga yaqin bo'lgan, umumiy tarix, madaniyat va 135urkey ildizlarga ega elatlardir. Ularning tillari ham **135urkey tillar oilasining qarluq va qipchoq guruhlariga** mansub bo'lib, fonetik, grammatik va leksik jihatdan o'xshashliklar bilan bir-biriga yaqin turadi.

Shu sababli o'zbek va qozoq tillari o'rtasidagi **til kontakti** nafaqat geografik yaqinlik, balki tarixiy, madaniy va ijtimoiy aloqalar natijasida yuzaga kelgan tabiiy hodisadir.

O'zbek va qozoq tillari kontakti — bu tabiiy, tarixiy va ijtimoiy zaruratdir. U ikki birodar xalqning do'stligi, madaniy yaqinligi va umumiy ildizlarini namoyon etadi. Til kontaktining natijasi sifatida tillar boyiydi, yangilanadi va zamonaviy muloqotga moslashadi. Shu bois bu hodisani ilmiy o'rganish nafaqat lingvistik, balki **madaniy va millatlararo ahamiyatga ega** masaladir.

Foydalanilgan adabiyotlar

- Ashirboyev S. (2023). *Areal lingvistika*. Toshkent: Bookmany print.
- Мирзаев М. (1961). *Ўзбек тилининг Бухоро гурппа шевалари*. Тошкент: Фан.
- Айдаров Т. (1977). *Лингвистикалық география*. Алматы: Мектеп.
- Благова Г. (1985). *Языковое контактирование в тимуридских государствах по данным ареального исследования // Тюркское языкознание*. Тошкент: Фан.
- Вайнрайх У. (1979). *Языковые контакты*. Киев.
- Қалиев Ғ., Сарыбаев Ш. (1967). *Қазақ диалектологиясы*. Алматы: Мектеп.
- Қудратов Т. (1968). *Ўзбек тилининг оралик шевалари: филол. фан. канд. ... дис.* Тошкент.

Раҳмонбердиев К. (1989). Ўзбек тил контактлари. Тошкент: Фан.

Ширалиев М. Ш. (1963). *О проблеме языка и диалекте* // Вопросы диалектологии тюркских языков. Баку: ИАН АЗССР.

Sayfulayev B. Some Problems of Phraseology of Turkic Languages (On the Example of Eye Phraseosomatizm). <http://dx.doi.org/10.47814/ijssrr.v5i4.263>

Sayfulayev B. Structural Features of Uzbek-Kazakh Dialectal Phrasemas. <https://cajssh.centralasianstudies.org/index.php/CAJSSH/article/view/311>